

## PROFESSOR V.G.GAKNING FONEMATIKAGA DOIR MEROSIDAN

**Mirzayeva Dilzoda Fayzullayevna**

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada professor V.G.Gakning fonematikaga doir qarashlari, chunonchi, fransuz va rus tillarida fonemalarning soni, ularni bir-biridan farqlab turuvchi (differensial) belgilar, qiyoslanayotgan tillarda qo'llanish darajasi (chastotasi), sintagmatik va pozitsion o'zgarishlari haqida ma'lumot berilgan, o'zbek tilida unlilar sonini uning tabiatidan kelib chiqqan holda belgilash maqsadga muvofiqligi qayd etilgan.

**Kalit so'z va iboralar.** Asimetriya, fonetika, pozitsion prinsip, bo'g'in prinsipi, segment, nisbat, ta'sir, unli, undosh, urg'usiz, tizim, negiz.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы закономерности слогаделения в английском языке, ранги ударности (главноударный, преударный, заударный, безударный с полной реализацией гласного и безударный с редуцированным гласным); теория слогового веса, определяемого по коллестеу мор; отношения слога и моры; проводится анализ фонологической системы узбекского языка; отмечается, что асимметрия позиционного и слогового принципов обеспошла развитие графического строения узбекского языка.

**Ключевые слова.** Асимметрия, фонетика, позиционный принцип, слоговой принцип, сегмент, корреляция, ударение, гласный, ударный, безударный.

**Annotation.** Studying the issues of regularity of syllable formation in the English language, identifying stress levels (main stress, pre-stress, post-stress, unstressed with full implementation of the vowel and unstressed with a shortened vowel); theory of joint mass determined by the number of moras; the relationship between words and mora; analysis of the phonological system of the Uzbek language; It is noted that the asymmetry of positional and logical principles hindered the development of the graphic structure of the Uzbek language.

**Keywords.** Asymmetry, phonetics, positional principle, syllabic principle, segment, ratio, effect, vowel, effect, unstressed.

Professor V.G.Gak, sarlavhada qayd etilgan mavzuga o'tishdan avval shuni ta'kidlaymiz, qiyosiy fonetika, qiyosiy fonologiya, fonemalarning qiyosiy tahlili aspektlari haqida yozadi, qiyosiy fonetika va fonologiya obyektlarini belgilaydi. Muallifga ko'ra, qiyosiy fonetika tovushlarning hosil bo'lish xususiyatlari va tillarning prosodik (intonatsion) vositalarini, qiyosiy fonologiya esa tovush va prosodik vositalarni so'z hamda gaplarning tovushiy qobig'ini farqlovchi vosita sifatida o'rganadi. Qiyosiy tipologiya tilning tovush qurilishini, eng avvalo, fonologiya aspektida o'rganadi.

Muallif fonemalarni tizim va funktsiya aspektlarida qiyoslaydi, shu bilan bog'liq holda quyidagi termin tushunchalarni farqlaydi:

-fonetik aniqrog'i, fonematik paradigmatika – fonemalarni ularning belgilari asosida o'rganish;

-fonetik sintagmatika. Bunda V.G.Gak ikki jihatni farqlaydi: a) nutqda tovushlarning qo'llanish chastotasi va b) fonemalarning birikishi;

-fonetik transformatika, ya'ni fonemalarning nutqda o'zgarishi va o'zaro almashinishi. Shu bilan bog'liq holda ishda pozitsion va tarixiy almashinish farqlanadi [qiyoslang: Gak, 1989, 33-34-b.].

V.G.Gak tilning fonemalar sonini aniqlash murakkab jarayon ekani, chunki har qanday tilda mazkur tovushlar mustaqil yoki boshqa tovushlarning variantlari bo'lishi mumkinligi haqida munozarali o'rinlar borligini ta'kidlaydi. Masalan, rus tilidagi [ы] tovushini ko'plab fonetistlar [u] ning pozitsion variant deyishadi. Shuningdek, yumshoq [ɾ], [κ], [x] tovushlari mustaqil fonemalar yoki qattiq [ɾ], [κ], [x] tovushlarining pozitsion variantlari (allafonlari) sifatida talqin qilindi.

V.G.Gak mo'tabar manbalarga asoslanib, rus tilida 5 ta unli va 37 ta undosh, fransuz tilida 15 ta unli va 20 ta undosh tovush borligini qayd etadi.

Shunday munozarali o'rinlar o'zbek tili tovushlari tizimida ham mavjud. Masalan, E.D.Polivanov o'zbek shevalarida 6 tadan 17 tagacha, prof. X.Doniyorov qipchoq shevasida 9 ta unli amal qilishini dalillar bilan isbotlab bergani holda rasman o'zbek tilida 6 ta unli qayd etib kelinmoqda. Holbuki, bu, shu, u olmoshlaridagi "u" bilan uy, tuy, suy kabi so'zlaridagi "u" bir xil tovush emasligi o'zbek tilidan xabardor har qanday kishi uchun shubhaga o'rin qoldirmaydigan haqiqatdir.

V.G.Gak tilning tovush tarkibini aniqlash qator qiyinchiliklar bilan bog'liqligi haqida gapirar ekan, qiyoslanayotgan tillarning fonemalarini o'rganishda, eng avvalo, ularda markaziy (yadroviy) va quyi (...) hodisalarni farqlash lozimligini uqtiradi.

Ayrim tillarda tovushlarning farqlovchi (differensial) belgilari hozirgacha aniq-tiniq va tugal aniqlanmagan. Shunday tillar tadqiqotchilari uchun V.G.Gakning farqlovchi belgilari va ularning turlari haqidagi mulohazalari Benazir ilmiy-amaliy manba bo'lishi mumkin.

V.G.Gakning yozishicha, fonologik tizimlarni qiyoslash, eng avvalo, fonemalarni shakllantiradigan belgilarni qiyoslashni maqsad qilib qo'yadi va bu belgilar konstitutiv yoki differensial (farqlovchi) belgilar deb ataladi. Mazkur tilning ikki tovushini farqlovchi konstitutiv belgi korrelyativ belgi nomi bilan yuritiladi. Shu ta'rif va mulohazalardan keyin muallif fonologik belgining uch turini ko'rsatadi va ularning ma'no-mohiyatini ochib beradi. Bular:

a) konstitutiv korrelyativ belgi. Bu bir fonemani ikkinchi tovushdan farqlashga xizmat qiladigan zaruriy belgi hisoblanadi va fonologik tizimning negizini tashkil qiladi hamda oppozitsiyani yuzaga keltiradi;

b) konstitutiv nokorrelyativ belgi. Bu belgi ham fonema uchun zarur bo'lsa-da, oppozitsiya hosil qilmaydi. Masalan, rus tilidagi (ч') tovush yumshatilishi (palatalizatsiya) korrelyativ belgi bo'lolmaydi, chunki tilde qattiq (ч) yo'q;

d) nokonstitutiv belgi mazkur fonema uchun zarur belgi emas. Uning qo'llanishi ma'noni farqlash bilan emas, balki nutqdagi o'rni bilan bog'liq [Qarang: Gak, 1989, 36-, 37-betlar].

Professor V.G.Gakning fonologik belgilar va tillararo interferensiya munosabatiga doir fikrlari mazkur sohalarda ko'pdan buyon kuzatilib kelayotgan bahsli nuqtalarga ma'lum darajada nuqta qo'yishga yordam beradi:

-fonemalar korrelyativ va nutqda qaratiladigan nokorrelyativ belgilar asosida shakllanadi. Binobarin, "differensial korrelyativ belgilar sifatida qancha ko'p belgidan foydalanilsa, tilda fonemalarning soni shuncha ko'p bo'ladi" [Gak, 1983, 38-bet].

-aynan bir belgi qiyoslanayotgan tillarda turli vazifa bajarishi mumkin;  
-belgilar turlarini farqlashtillararo interferensiya mohiyatini tushunishga imkon beradi.

Bu yerda fonemaning ma'no farqlovchi funksiyasi bilan bog'liq differensial korrelyativ belgilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor V.G.Gakning fonemalarning nutqda qo'llanish darajasi (chastotasi) haqida mulohazalari nafaqat qiyosiy-tipologik tadqiqotlar, shuningdek, mazkur tilning fonematik tizimi yozuvchi va so'zlovchining uslubiy xususiyatlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tovushlarning nutqda qo'llanishini o'rganish ayrim umumiy (universal) tendensiyalarni, masalan, nutqda undoshlarning unilarga nisbatan ko'p qo'llanishini qiyoslanayotgan tillarga xos mushtarak va xususiy jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Biroq V.G.Gak fonemalarning nutqda qo'llanishini namoyon etuvchi mutlaq statistikani yaratishning imkoni yo'qligini ham uqitirib o'tadi [Qarang: Gak, 1989, 39-bet].

Xullas, atoqli tilshunos, lug'atshunos, ta'limshunos, komparativist V.G.Gakning yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalari nafaqat turkiy (xususan, o'zbek), balki nazariy jihatdan yuqori marralarga erishgan Hind-Yevropa tillari tadqiqi uchun ham muhim nazariy-metodologik manba vazifasini bajaradi.

Dunyoning nomdor tilshunoslari ilmiy merosini o'rganish, asarlarini tarjima qilish ona til ilmi va ta'limi tadqiqining yangi ufqlarini kashf etish imkonini beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. — Москва: Просвещение, 1989. — С. 33-39.